

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

fani

O'QUV DASTURI

Billm sohasi: 900 000– Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 920 000– Ijtimoiy ta'minot
Mutaxassislik: 70310301-Psixologiya

Toshkent -2025

Fan/modul kodi ILTMI106	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026	
Har bir semestrdagi fan/modulning nomi	Semestr	Haftalik dars soatlari		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
		ECTS - Kreditlar		Jami yuklama (soat)	
		1	6	90	180
Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	1	6	6	90	180
Jami:	6	6	6	90	180

2. I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda ilmiy tadqiqot dasturini tuzish va unda nazariya va amaliyot birligiga rioya qilish malakalarini shakllantirishdan iborat. Fan magistrnlarni ilmiy izlanishning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtiradi, ularni magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlash, uni tayyorlash va talab darajasida tayyorlashga ko'maklashishni ko'zda tutadi. Ilmiy izlanishda umumifalsafiy, umumilimiy hamda maxsus fan myetodlarini qo'llash yo'llarini o'rgatadi, magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarni to'g'ri anglash imkoniyatini yaratishdir.

Fanning vazifasi – Ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda ilmiy izlanish, ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish; ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish va uning echimini topish yo'llarini izlash texnologiyasini; axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyati; ilmiy ish ma'nosini tushunishning ahamiyati; ilmiy tadqiqot jarayonida olim mas'uliyatining ahamiyatini o'rganishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa

Fan tushunchasining tahlili. Fanning maqsadi va vazifalari. Fan bilim, faoliyat va ijtimoiy institut. Fan taraqqiyotiga oid yondashuvlar tasnifi: prezntizm va antikvarizm, internalizm va eksternalizm, ssientizm va antissientizm. Fanning modellari. Fanning funksiyalari. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Fan va falsafaning mutanosibliigi.

2-mavzu. Fanlarning tasnifi

Fanlar tasnifi: fundamental, nazariy, amaliy, eksperimental, texnika

ijtimoiy gumanitar fanlarning o'zaro aloqasi va farqlari. Olimlar fanlar tasnifi haqida. Fanning dinamik va statik qonuniyatlari. Ilmiylik mezonlarining tasnifi. Analitik va sintetik bilim. Fanlarning differansiyasi va integratsiyasi. Fanning obrazi. Fanning ijtimoiy madaniy mo'ljallari.

3-mavzu. Ilmiy tadqiqotda ijod va ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishi

Ijod ilmiy tadqiqotni maqsadli tashkil etish omili. Ijodning asosiy xossalari. Daholikning tabiati. Ilohiy ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy tadqiqot namoyon bo'lishining asosiy jihatlari: erkinlik, yozma va og'zaki nutq. Ilmiy nashrlar tasnifi: tezis, maqola, monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalarni nashrga tayyorlashda bilimning ahamiyati va ularning taqdimoti. Adabiyotlarni o'rganish amaliyoti: alfavit katalogi, sistematik katalog, predmetli katalog va elektron kataloglar. Elektron kutubxona va undan ilmiy tadqiqotni tashkil etishda foydalanish amaliyoti. Ilmiy tadqiqotda boshqa olimlarning ishlariga iqtibos berishning ahamiyati. Olimlarning ilmiy ishlariga iqtibos berishning shakllari (g'oyani rivojlantiruvchi, inkor etuvchi, izohlovchi, inkor etuvchi, tanqidiy iqtibos) va ularning ilmiy faoliyatdagi o'rni. Plagiat (ko'chirmachilik) olim sha'niga isnod sifatida. Xalqaro jurnallarda maqolalar nashr qilishning zarurligi va ahamiyati. Scopus Elsevier, Web of Science, Akademiya Google (google scholar, RINS, Elsevier, Ziyonet, Vikepediya, h-indeks yoki Xirsh indeks).

4-mavzu. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari

Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari: individual ilmiy tadqiqot; (bakalavr bitiruv ishi, magistrlik va doktorlik dissertatsiyasi, referat va maqolalar, kurs ishi, monografiya, darslik, o'quv qo'llanma). Dissertatsiyalar bilan ishlash amaliyoti. Avtoreferat matnini uchinchi shaxs nomidan tayyorlashning zarurati. Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotning o'ziga xos xususiyati; buyurtma asosidagi hamkorlik faoliyati, fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot ishlari hamkorlikdagi faoliyat mahsuli. Hamkorlikdagi maqola va monografiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Texnikaviy tadqiqot. Ijtimoiy fanlardan tadqiqot ishi. Badiiy ijod bilan bog'liq tadqiqot. Pedagogik tadqiqot. Ilmiy tadqiqotning xossalari. Ilmiy tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari. Ilmiy tadqiqotning amal qilish mexanizmlari

5-mavzu. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish tiplari

Ilmiy tadqiqotning tiplarining tasnifi: fundamental va nofundamental tadqiqotlar. Amaliy tadqiqotlar va ularni moliyalashtirish imkoniyatlari. Tadqiqotchilik loyiha konstruktorlik ishlanmalari: (mutlaqo maxfiy tadqiqotlar). Yoshlarning fundamental, amaliy va innovatsion loyihalari. Xalqaro jamg'armalar, nodavlat-notijorat tashkilotlarning ijtimoiy loyihalari. Ilmiy

bilimning o'zida qonuniyatlari. Fanning o'zida nuqtalari. Ilmiy tadqiqotda vorislik va novatorlikning mutanosibliigi.

6-mavzu. Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyat ilmiy tadqiqotning boshlang'ich asosi

Muammo tushunchasi va uning mohiyati. Muammo bilan muammoning g'oyasini farqlash metodikasi. Ilmiy muammolarning namoyon bo'lish usullari: predmetga doir va protseduraga doir muammolar. Mavzuni tanlash muammoning to'g'ri yechimi, ilmiy faoliyatdagi natijaga erishishning kafolati. Muammo va metod uyg'unligi. Muammo va masalaning bog'liqligi. Muammoli vaziyat va uning ahamiyati. Muammo va ilmiy tadqiqot vazifasining uyg'unligi.

7-mavzu. Dalil ilmiy tadqiqotning samaradorlik omili

Dalil muammoni yechimini topish omili. Empirik dalillarning xossalari. Ilmiy dalilning tavsifi. Ilmiy dalilning xossalari. Ilmiy dalil strukturasi. Ilmiy dalillarni aniqlash usullari. Dalillarning ilmiy tadqiqotdagi ahamiyati va "imtiyozli" dalillar. Dissertatsiyani tayyorlashda dalilning ahamiyati. (magistrlilik dissertatsiyasiga ilmiy dalillar yig'ish va tahlil qilish misolida asoslanadi).

8-mavzu. Ilmiy tadqiqotda semiotik belgilar, simvol va dialogni tushunishning ahamiyati

Ilmiy faoliyatni tashkil etishda ilmiy mavzuning mohiyatini tushunishning zarurligi. Ilmiy muammoni tushunishning ikki muhim jihati: sikllilik va germeneytik doira tamoyili. Ilmiy tadqiqotda matn ma'nosini anglash va undan samarali foydalanish usullari. Yozma va og'zaki matn ma'nosini, mazmunini tushunish, taxlil qilish. Semiotik belgilar va belgilar tizimlardan ilmiy tadqiqotda samarali foydalanishning ahamiyati. Ilmiy tadqiqotda simvollarini asosli belgilash va ularda ma'zmun va maqsadni ifodalash. Dialog og'zaki matn tushunishning muhim vositasi. Dialogning turlari. Ilmiy ma'ruzaning ma'nosini tushunishda dialogning usulidan foydalanish. Ilmiy tadqiqot faoliyatida tadqiqot vazifalari, predmeti va ob'ekti mazmunini tushuntirishning ahamiyati. Til mulohaza va tushunish, anglash vositasi. Tushuntirish usuli va tushunishning o'zaro mutanosibliigi.

9-mavzu. Ilmiy faoliyatni tizimli tashkil etishda ilmiy maktab, metod va metodologik yondashuvlar

Ilmiy maktab shakllanishining genezisi, umumiy belgilari va asosiy bosqichlari. Metod, metodologiya, metodika tushunchalari. Metodlarning tasnifi: fan metodlari; fanlararo tadqiqot metodlari; xususiy ilmiy metodlar; empirik tadqiqot metodlari, nazariy tadqiqot metodlari; umumilimiylar tadqiqot metodlari, umumiy mantiqiy metodlar; falsafa metodlari; ijtimoiy-gumanitar

fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi. Evristika - yangi metodologik tamoyil. Metodologik tamoyillarning klassifikatsiyasi.

10-mavzu. Intellektual mulk huquqi innovatsiya va novatsiyalar, kashfiyot va ixtiro, intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibliigi

Intellektual mulk tushunchasining mohiyati. Mualliflik huquqining yo'nalishlari. Patent - olim ilmiy kashfiyoti yoki ixtirosining e'tirof qilinganligi haqidagi guvohnoma. Mualliflik huquqi va uning buzilishi oqibatlari. Innovatsiya tushunchasi va uning tahlili. Innovatsiyalarning belgilariga ko'ra tasnifi. Innovator tushunchasining mohiyati. Ilmiy faoliyatda innovatsiyalar. Novatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari. Kashfiyot, ixtiro tushunchalarining innovatsion xarakteri. Kashfiyot va ixtirolarning kashfiyot tahlili. XX-XXI asr kashfiyot va ixtirolari. Fizika sohasidagi ilmiy kashfiyotlar. DNK qo'shaloq spirali. XX asrda fandagi ilmiy kashfiyotlar. XXI asrning muhim ilmiy kashfiyotlari. O'zbekiston olimlarining xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim kashfiyotlari. Innovatsion ixtirolarning amaliyotga va kundalik hayotga joriy etilishi: Fesebook (feysbuk), Apple iPod. Intellektual mulk tushunchasining tasnifi.

11-mavzu. Ilmiy tadqiqotga ratsional yondashuvning ahamiyati

Ilmiy ratsionallikning shakllanish tarixi. Ilmiy ratsionallikning klassik va postklassik qiyofasi. Ochiq va yopiq ratsionallik. Ong strukturada ratsionallik. Ilmiy tadqiqot faoliyatida ratsionallik va irratsionallik dialektikasi. Ijtimoiy iqtisodiy xayotning ratsionallashuvi. Kundalik amaliyotning takroriyligi va davomiyligi. Ilmiy ijtimoiy harakatning maqsadi va vazifalari.

12-mavzu. Ilmiy tadqiqotda axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati

Axborot, bilim, ma'lumot tushunchalarining tahlili. Bilimning informativligi. Ijtimoiy axborot. Informatika va informatizatsiya. Ilmiy bilimning informativligi. Axborot texnikasi va axborot texnologiyasi. Axborotlashgan jamiyati konsepsiyasi. Raqamli iqtisodiyot va uning chuqurlashuvi. Axborot inqilobi. Nanotexnologiyalar. Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi. Sun'iy intellekt. Virtual borliq texnologiyalaridan ilmiy faoliyatda foydalanishning ahamiyati.

13-mavzu. Olimning professionallashuvi, ijtimoiy mas'uliyati va ilmiy etika

Ilmiy tadqiqotda olimning erkinligi va ijtimoiy nazorat uyg'unligi. Ilmiy faoliyatni ijtimoiy nazorat qilish vositalari: ekspertlar kengashi, kollegial tashkilotlar, maslahat kengashlari. (Ilmiy loyihalar mazmuniga baho beruvchi

ekspert kengashlari). O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi olim ilmiy faoliyatiga baho beruvchi tashkilot. Neytralizm va ijtimoiy mas'uliyat. Olimlar jamoasining tasnifi: super intellektual elita, intellektual elita, ilm ahli tushunchalarini bir birlan farqlovchi asosiy belgilar. O'zbekistonning intellektual elitasi va ularga ishlash uchun yaratilgan sharoitlar. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini tashkil etish, fikr almashish vositalarining tasnifi: kongress, forum, simpozium, konferentsiya, seminarlarning bir birlan farqli jihatlari. Hozirgi zamon olimining portreti. Olimlarning konsensus-murosaga kelishida bilim va madaniyat uyg'unligi. Fandagi korupsiya va unga qarshi kurash vositalari. Ilmiy jamoatchilik etikasining asosiy tamoyillari: fan etikasi, ilmiy bilimlarning yangiligi, ilmiy tadqiqot natijalarining umumiyligi va ochiqdigi. Ilmiy tadqiqotda konstruktiv skeptisizm yoki tanqid. Ilmiy etika normalari: kundalik ilmiy faoliyatni tartibga soluvchi normalar, xamkasblar va jamoadoshlar orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar. Ilmiy ishlarni nashr etilishini tartibga soluvchi qoidalar. Fan etikasi normalarinig buzilishi: yolg'on axborotlarni tarqatish, mualliflik huquqini su'istemol qilish. Ilmiy etika qoidalarini buzganlik uchun umumiy javobgarlik.

14 - mavzu. Ratsionallik va ilmiy tadqiqot mutanosibligi

Ilmiy ratsionallikning shakllanish tarixi. Ratsionallikning mazmuni. Ratsionallik modellari: induktivistik, deduktivistik, evolyusionistik, to'rsimon, realistik, paradigmalar, fanni tematik tahlil qilish va ilmiy tadqiqotga asoslanuvchi modellar. Ilmiy ratsionallikning klassik va noklassik qiyofasi. Yangi ratsionallikning cheksizligi. Ochiq va yopiq ratsionallik. Ong strukturasida ratsionallik. Ong tabiatini tushuntirishga oid yondashuvlar. Ratsionallik va ilmiy bilimning ijtimoiy - nazariy asoslari. Ilmiy bilim qoida va xulosalarining ratsionalligi. Ilmiy tadqiqot faoliyatida bilimning ratsionallashuvi

Ilmiy tadqiqot faoliyatida ratsionallik va irratsionallik. Inson bilimi hissiy va rasional faoliyat birligi mahsuli. Rasional faoliyat fikr shakllari bilan aniq belgilangan andozaga muvofiq ish ko'rish shakli. Hayotning rasionallashuvida bilimning roli. Simvollik interaksionizm konsepsiyasi. Yo'l tanlashning ratsionalligi. Determinizm - muxandislik - texnikaviy yondashuv doirasida qo'llaniladigan nazariy mavhumlashtirishning pirovard natijasi.

15-mavzu. Ilmiy tadqiqotni rasmiylashtirish va natijalarni joriy qilinishi

Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish: ijtimoiy mohiyati va shakllari. Rasmiylashtirilgan ilmiy ish qadriyat va intellektual mulk sifatida. Ilmiy ish matni, materialni bayon qilish qoidalar. Ilmiy matn kompozitsiyasi, undagi mantiqiy va strukturaviy izchillik. Matni yozishda uslubiyat, orfografik va punktuatsion qoidalariga qat'iy amal qilish. Ilmiy ishning bibliografik apparati. Adabiyotni qayd

qilish va ixtibos qoidalar. Annotatsiya va referet tuzish. Avtoreferat yozish. Qo'lyozmani tahrir qilish.

Dissertatsiya tushunchasi. Dissertatsion tadqiqotning metodologik, nazariy, ijodiy va amaliy jihatlari. Dissertatsiya oldiga qo'yilgan vazifa va talablar. Magistrlik dissertatsiyasi tushunchasi. Magistrlik dissertatsiyasini tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasining tayyorlash tamoyillari va qoidalar.

Dissertatsion tadqiqotning nazariy va amaliy samaradorligi, uni rasmiylashtirish qoidalar. Magistrlik dissertatsiyasini himoyaga tayyorlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa
2. Fanlarning tasnifi
3. Ilmiy tadqiqotda ijod va ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishi
4. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari
5. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish tiplari
6. Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyat ilmiy tadqiqotning boshlang'ich asosi
7. Dalil ilmiy tadqiqotning samaradorlik omili
8. Ilmiy tadqiqotda semiotik belgilar, simvol va dialogni tushunishning ahamiyati
9. Ilmiy faoliyatni tizimli tashkil etishda ilmiy maktab, metod va metodologik yondashuvlar
10. Intellektual mulk huquqi innovatsiya va novatsiyalar, kashfiyot va ixtiro, intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibligi
11. Ilmiy tadqiqotga ratsional yondashuvning ahamiyati
12. Ilmiy tadqiqotda axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati
13. Olimning professionallashuvi, ijtimoiy mas'uliyati va ilmiy etika
14. Ratsionallik va ilmiy tadqiqot mutanosibligi
15. Ilmiy tadqiqotni rasmiylashtirish va natijalarni joriy qilinishi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar


Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va tur-lari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari mavzularidan chellashmagan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 30-maydagi 02/35-30/05-49-son xati bilan tavsiya etilgan "OTMlarda kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnoma"ning 5-bandiga asosan shakllantirildi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Fan ijtimoiy madaniy hodisa
2. «Ilmiy tadqiqot metodologiyasi» fanining tarixi
3. Ilmiy tadqiqotning zamonaviy metodlari
4. Fundamental tadqiqotlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
5. Ilmiy tadqiqot inson ijodiy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi

6. Tasvirlash, tavsiflash, tushunish va tushuritishning ilmiy tadqiqotdagi o'rni 7. Intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibligi 8. Intellektual mulk huquqi: innovatsiya va novasiyalar, kashfiyot va ixtiro 9. Magistrlik dissertatsiyasiga oid ilmiy maqola va tezis tayyorlash; 10. Magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablar 11. Magistrlik dissertatsiyasiga mavzuga oid adabiyotlarni shartlash; 12. Ilmiy ma'lumotlarni saralash; 13. Dissertatsiyaga annotatsiya tayyorlash; 14. Dissertatsiyaning kirish qismini tayyorlash 15. Magistrlik dissertatsiyasining taqdimotini tayyorlash Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar: 1. Seminar va amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. 2. Berilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi rahbarligida ilmiy-ijodiy ishlanmalar tayyorlash. 3. Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish. 4. Referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) 3. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: ilmiy tadqiqot olib borishning metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot olib borishning zaruriy shartlari, ilmiy izlanishga hos asosiy tushunchalar, ilmiy tadqiqot olib borishning mantiqiy tuzilmasi, ilmiy bilishda umumiy va xususiy metodlar, mavzuni tanlash bosqichlari, tadqiqot rejasini tuzish, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish, fanning o'ziga xos hususiyatlari, ilmiy tadqiqotning amal qilish mexanizmlari xaqida tasavvurga ega bo'lish, tadqiqot struktirasi to'g'risida bilimga, tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotning metodologik tomonlari, ilmiy loyixalarini tuzish, ilmiy izlanishlarning yo'nalishlari haqida ko'nikmaga; bilimning konstruktiv xarakteri, ilmiy faoliyat ma'sulining amaliy a'amiyatini anglash, ilmiy-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish usullari va talablarini bilish, havola berish usullari, mavzuni yoritish uchun matndan faktik misollar tanlash, faktik materiallarning miqdorini belgilash, qo'lyozmani ta'rir qilish, ilmiy ishni ilmiy uslubda ravon va savodli yozish kabi kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.
4. VL Ta'lim texnologiyalari va metodlari: – ma'ruzalar; – interfaol keys-stadlar; – seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); – guruhlarda ishlash;	

	– taqdimotlarni qilish; – individual loyihalar; – jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. VII. Talabalarining kreditlarni olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanidan 1-semestrda 180 soat <i>o'quv yuklamasini o'zlashtirgan</i>, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra <i>ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan</i> talabaga 1-semestrda 6 kredit beriladi. Talaba belgilangan <i>ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi</i>. Talabalarining bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi. Talabalarining bilimni baholash mezonlari: "5" baho (a'lo) – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi. "4" baho (yaxshi) – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi. "3" baho (qoniqarli) – talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda qo'yiladi. "2" baho (qoniqarsiz) – talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda qo'yiladi.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Shermuxamedova N. A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.-Toshkent: Noshir, 2020. - 480 b. 2.Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 454 b. Qo'shimcha adabiyotlar: 2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021 3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2019, 591 b. 4. Alemasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot, metodika, ijodiyot.- -Toshkent:

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar akademiyasi, 2015. - 120 b. 5. Valieva S., Tulenova K.J. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv qo'llanma. T., 2020. 6. Давронов З.Д. Илмий ижодиёт методологияси. – Тошкент: ТМИ, 2004. 7. Рахмонов Д.А. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning etimologiyasi xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent, "FAN VA TA'LIM", 2022. - 144 b. 8. Сабитов Р.А. Основы научных исследований. – Челябинск: Челябинск. Ун-т. 2002. 9. Saifnazarov i., Karimov T., Nikitchenko . V. Ilmiy ijod metodologiyasi.- Toshkent:TDIU, 2004 10. Shermuxamedova N.A. Fan falsafasi. -T.: Noshir, 2016. 460 b. 11. Turabova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, disput)ning mantiqiy-epistemik tahlili (monografiya).-Termiz: «Surxon-nashr», 2020. -148b. 12. Umarov A.V., Hakimov N.H. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Magistrlar uchun darslik. Toshkent, Firdavs shoh nashriyoti. 2025. -245 bet. Axborot manbalari: 1. http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 2. http://www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 3. http://www.prezident.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali. 4. http://www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumati portali. 5. http://www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti. 6. http://www.kun.uz – O'zbekiston va jahon yangiliklari, eng so'nggi xabarlar sayti. 7. http://www.ziyouet.uz.	
7.	Fan dasturi Universiteti Kengashining 2025-yil ___-avgustdagi ___-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri, psixol.f.n., dotsent I.N.Aslanov 
9.	Fan/modul uchun ma'sullar: Toyirova Sh.I.  Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
10.	Taqrizchilar: Fayzieva F.  Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) N.X.Xakimov  TAFU "Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori